

Uzbekistan Airways hujjatli filmning yopiq namoyishida: “Taymetov. G‘alaba xabarchisi”

2025 26 Iyun

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari saroyida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar kuni munosabati bilan “Taymetov. G‘alaba xabarchisi” hujjatli filmining tantanali namoyishi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda “Uzbekistan Airways” AJ xodimlari va ularning oila a‘zolari ishtirok etdilar.



Film O'zbekistonning birinchi uchuvchisi Abdusamat Taymetovning jasorati va tarixiy missiyasiga bag'ishlangan. Aynan u 1945-yil 9-may kuni G'alaba bayrog'i va Germaniya taslim bo'lish aktini Moskvaga yetkazgan. Ushbu noyob voqea filmning asosiy g'oyasiga aylangan bo'lib, unda chuqur vatanparvarlik ruhi va tarixiy ahamiyat mujassam.



Namoyish tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Tadbir ishtirokchilari filmning badiiy darajasi va hujjatli qiymatini alohida e'tirof etdilar. Lenta xalqaro miqyosda ham tan olingan bo'lib, bir qator nufuzli mukofotlarga sazovor bo'lgan:

- II Xalqaro “Yevrosiyo-Kinofest” kinofestivalida “Matbuot mukofoti”
- XIX Xalqaro “Madaniyatlar muloqoti” media-forumida “Eng yaxshi film” maxsus diplomi
- XXXIV Xalqaro “Oltin Vitiz” kinoforumida “Eng yaxshi debyut” yo‘nalishida g‘oliblik



“Uzbekistan Airways” Aj yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish va tarixiy xotirani asrashga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tashabbuslarni qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratadi.

Film namoyishi avlodlarni birlashtirgan, yuraklarga ilhom baxsh etgan yorqin voqea bo’ldi. Bu — butun mamlakat faxrlanadigan buyuk meros haqida eslatma bo’lib xizmat qildi.

Lentani professional ijodiy jamoa tayyorlagan:

- Rejissyor — Eldor Yo’ldoshev

- Produser — Saidrasul Imomov
- Ssenariy muallifi — Muyassar Maqsudova
- Kompozitor — Igor Pinkhasov

Filmda maxsus restavratsiya qilingan noyob arxiv materiallari ishlatilgan bo'lib, ular ekran ko'rinishi uchun ehtiyotkorlik bilan moslashtirilgan.